RAQAMLI TA’LIMGA O`TISH AFZALLIKLARI

Otabekov Akbar Oynabekovich JDPI katta o’qituvchi,
Pardayev Sherzod Mamasharipovich JDPI o`qituvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda O‘zbekistonda amalga tadbiq etilayotgan yangi soha milliy elektron ta’lim tizimini shakllantirish va rivojlantirish borasidagi takliflar, mazkur sohada jahondagi ilg‘or tajribalar misolida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: *innovatsion g‘oyalar, milliy ta’lim tizimi, innovatsiya, investitsiya, milliy g‘oya, milliy dastur, milliy elektron ta’lim tizimi.*

Аннотация. В данной статье анализируются предложения по формированию и развитию новой национальной системы электронного обучения, которая в настоящее время внедряется в Узбекистане с использованием лучших мировых практик в этой области.

Ключевые слова: *инновационные идеи, национальная система образования, инновации, инвестиции, национальная идея, национальная программа, национальная система электронного обучения.*

Annotation. This article analyzes the proposals for the formation and development of a new national system of e-learning, which is currently being implemented in Uzbekistan, using the best practices of the world in this field.

Key words: *innovative ideas, national education system, innovation, investment, national idea, national program, national e-learning system.*

Bugungi kunga kelib dunyoda ta’lim berish va ta’lim olish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Chunki aynan sifatli ta’lim biz yashab turgan dunyoni turli muammolardan qutqarishda muhim rol o'ynashi endi hech kimga sir emas. Shu tufayli davlatlar ta’lim sohasiga katta mablag' ajratmoqdalar. Bu borada mamlakatimizda ham salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Shunday bo'lishiga qaramay ta’lim tizimimizda hali o'z yechimini kutayotgan qator masalalar borki, ularni bartaraf etmasdan zamonaviy sifatli ta’lim haqida gapirib bo'lmaydi. Xususan, axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda, fikrimizcha, ta’lim tizimiga raqamli texnologiyalarni jalb etmasdan ta’lim sifatini oshirish mumkin emas[1].

Biz ilgari ta’lim dasturlarini an’anaviy usulda ma’ruza shaklida olib

borganmiz. Bu ham yirik xajmli kitoblar va qo'llanmalar orqali amalga oshirilgan. Bu o'z navbatida ta’lim sifatining u qadar yuqori bo'lishini ta’minlamagan. O'quvchilar turli qo'shimcha materiallarni o'zlashtirish uchun ham yirik hajmdagi adabiyotlar va katta sumkalarni ko'tarib yurishga majbur bo'lgan. Endilikda ta’limni raqamlashtirish jarayoni boshlandi. Bu esa ta’lim oluvchiga zamonaviy qulayliklar yaratib ta’lim olishni osonlashtirmoqda. Raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta’lim tizimi vositalari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Bugun ular bilan ta’lim tizimining qurollantirilishi o'quvchilarga dars mashg'ulotlarini sifatli o'tilishini ta’minlaydi. Bugungi pandemiya sharoiti ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishini isbotladi. Televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta’limga o'tishning bir debochasi sifatida qabul qilsak bo'ladi. Bu jarayon o'quvchiga uydan chiqmay turib ham ta’lim olish mumkinligini isbotlab berdi. Raqamli ta’limga o'tishning boshqa afzalliklari to'g'risida ham fikr yuritadigan bo'lsak ularga quyidagilarni kiritish o'rinlidir.

- darsliklar elektron holatda ekranlarga ko'chadi;
- o'quvchilar xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta’lim olish imkoniga ega bo'ladi;
- o'quvchilar mutaxasis yetishmaydigan uzoq qishloqlarda ham fanlarni tanlash va uydan turib ta’lim olish imkoniga ega bo'ladi;
- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;
- ta’lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi;
- vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi;
- “raqamli dunyo”da yo'qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo'ladi.

Bugun mamlakatimizning barcha hududlarida ham internet tezligi yetarli emas. Bu esa o'z navbatida raqamli ta’lim tizimiga o'tishga to'sqinlik qiladi. Buni bartaraf etish uchun esa hukumat darajasidagi katta ishlar amalga oshirish talab etiladi. Prezidentimizning Oliy Majlisga murojaatnomalarida ayni shu sohada

ko'rsatmalar berilgani biz fikr yuritayotgan sohada sezilarli yuksalish yuz berishiga ishontiradi. Wi-Fi zonalar, IT parklar ochilishi raqamli ta’lim tizimini yuksalishiga xizmat qiladi.

Raqamli ta’limning joriy etilishi o'qituvchilar orasida ishsizlikni keltirib chiqarishi ehtimolini yuzaga keltiradi, ammo buni ham bartaraf etish imkoni mavjud. Buning uchun o'qituvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o'stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish orqali bandligini ta’minlash mumkin. Bunda nafaqat mamlakatimizdagi balki chet eldagi qator ta’lim oluvchilarni ham jarayonga jalb etish imkoni bo'ladi. Bu o'z navbatida mustaqil mablag' topish imkonini bersa, ikkinchidan o'qituvchini o'z ustida ko'proq ishlashi va raqobat tufayli ta’lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda bunga telegram kanallari orqali amalga oshirilayotgan ta’limni misol sifatida keltirish mumkin. Bu kanallar orqali o'zlashtirish ko'p vaqt talab etadigan bilimlar qisqa muddatda yetkazib berilmoqda[2].

Xulosa sifatida aytish mumkinki raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Zamonaviy ta’limni tashkil etish va ta’lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi. Aynan zamonaviy raqamli ta’lim tizimining tashkil etilishi o'z navbatida kelajak avlodning bugungi raqamli dunyoda o'ziga xos o'rin topishiga xizmat qiladi. Raqamli ta’limning to'g'ri tashkil etilishi raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi uchun yetarli darajada asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga jaxon hamjamiyatida davlatimizning muhim o'rin egallashimizni ta’minlaydi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Zamonaviy maktab”larni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida. Toshкent, 2019-yil 26-noyabr.
2. Umumiy o’rta ta’limining Davlat ta’lim standartlari va o’quv dasturi.
3. А.Ф. Кавтерев «Особенности использования компьютерных моделей при работе с сильными и слабоуспевающими учащимися»

4. Лебедева М. Б.Система модульной профессиональной подготовки будущих учителей к использованию информационных технологий в школе.